World Bulletin of Social Sciences (WBSS)
Available Online at: https://www.scholarexpress.net
Vol. 64, November 2026
ISSN: 2749-361X

A COMPARATIVE ANALYSIS OF OLD AND NEW 6TH-GRADE MATHEMATICS TEXTBOOKS: CONTENT, STRUCTURE, ADVANTAGES, AND WAYS TO IMPROVE

Master's Student in Applied Mathematics, International Nordic University
Kumushoy Xamid qizi Xudashkurova
kumushoyxudashkurova@gmail.com
Master's Student in Applied Mathematics, International Nordic University;
Mathematics Teacher at the Specialized Boarding School of the Ministry of Internal Affairs
Dilnura Rustamovna Yoqubova
dilnurayakubova98@gmail.com
Master's Student in Applied Mathematics, International Nordic University
Malohat Sodiqjonovna Arashova
arashovamalohat7@gmail.com

Article history:

Received: 14th September 2026
Accepted: 11th November 2026

Abstract:

This article provides a comparative analysis of the former and new-generation mathematics textbooks used in the 6th grade of secondary schools. Specifically, it examines the content, structure, sequence of topics, methods of presenting theoretical information, system of exercises and problems, visual aids, and opportunities for developing students' independent thinking based on the "Mathematics 6" textbook published in 2017 and the "AHA! Mathematics" textbook published in 2024. The specific features, pedagogical potentials, advantages, and certain shortcomings of both textbooks are analyzed. Furthermore, methodological recommendations are developed to integrate traditional and interactive approaches in modern mathematics education, enhance students' mathematical literacy, and connect acquired knowledge with daily.

Keywords: mathematics education, 6th grade, textbook, comparative analysis, mathematical literacy, algebra, geometry, problem-solving, interactive methods, independent thinking, educational effectiveness

ESKI VA ANGI 6-SINF MATEMATIKA DARSLIKLARINING QIYOSIY TAHLILI: MAZMUNI, TUZILISHI, AFZALLIKLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Xalqaro Nordik Universiteti Amaliy matematika yo'nalishi magistranti
Xudashkurova Kumushoy Xamid qiz
kumushoyxudashkurova@gmail.com
Xalqaro Nordik Universiteti Amaliy matematika yo'nalishi magistranti
IIV ixtisoslashtirilgan maktab-internati matematika fani o'qituvchisi
Yoqubova Dilnura Rustamovna
dilnurayakubova98@gmail.com
Xalqaro Nordik Universiteti Amaliy matematika yo'nalishi magistranti
Arashova Malohat Sodiqjonovna
arashovamalohat7@gmail.com

Annostatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining 6-sinf matematika fanidan foydalanilgan eski va yangi avlod darsliklari qiyosiy tahlil qilinadi. Xususan, 2017-yilda nashr etilgan "Matematika 6" darsligi hamda 2024-yilda nashr etilgan "AHA! Matematika" darsligining mazmuni, tuzilishi, mavzular ketma-ketligi, nazariy ma'lumotlarni bayon qilish usullari, mashq va masalalar tizimi, ko'rgazmalilik darajasi hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari o'rganiladi. Har ikki darslikning o'ziga xos jihatlari, pedagogik imkoniyatlari, afzalliklari va ayrim kamchiliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy matematika ta'limida an'anaviy va interfaol yondashuvlarni

World Bulletin of Social Sciences (WBSS)
Available Online at: https://www.scholarexpress.net
Vol. 64, November 2026
ISSN: 2749-361X

uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarning matematik savodxonligini oshirish va bilimlarni kundalik hayot bilan bog‘lashga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.
Kalit so‘zlar: matematika ta’limi, 6-sinf, darslik, qiyosiy tahlil, matematik savodxonlik, algebra, geometriya, masalalar yechish, interfaol metodlar, mustaqil fikrlash, ta’lim samaradorligi.

KIRISH

Matematika fani o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarga yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Maktab ta’limida matematika fanini o‘qitish samaradorligi ko‘p jihatdan darsliklarning mazmuni, metodik jihatdan to‘g‘ri tuzilishi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligiga bog‘liq.Ayniqsa, 6-sinf matematika ta’limida muhim bosqich hisoblanadi. Chunki bu davrda o‘quvchilar boshlang‘ich sinflarda va 5-sinfda o‘zlashtirgan matematik bilimlarini yanada kengaytiradilar, yangi matematik tushunchalar bilan tanishadilar hamda keyingi sinflarda o‘rganiladigan algebra va geometriya fanlari uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradilar.Ta’lim tizimining rivojlanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi va o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarining o‘zgarishi darsliklarni ham takomillashtirishni talab etadi. Shu sababli eski va yangi avlod matematika darsliklarini o‘zaro taqqoslash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ta’lim jarayonida ulardan samarali foydalanish yo‘llarini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.Mazkur maqolada eski darslik sifatida 2017-yilda nashr etilgan M.A. Mirzaahmedov, A.A. Rahimqoriyev, Sh.N. Ismailov va M.A. To‘xtaxodjayevalar mualliffigidagi “Matematika 6” darsligi, yangi darslik sifatida esa 2024-yilda nashr etilgan “AHA! Matematika” 6-sinf darsligining birinchi va ikkinchi qismlari asos qilib olindi.Maqolaning asosiy maqsadi ushbu darsliklarni shunchaki eski va yangi deb ajratish emas, balki ularning ta’limiy imkoniyatlarini, mazmuniy farqlarini, o‘quvchi bilimini rivojlantirishdagi o‘rnini va amaliy ahamiyatini ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Eski va yangi darsliklarning umumiy tuzilishi va mazmuni.2017-yilda nashr etilgan “Matematika 6” darsligi uzoq vaqt davomida umumta’lim maktablarida foydalanilgan o‘quv adabiyotlaridan biri hisoblanadi. Ushbu darslikda matematik bilimlarni izchil va tizimli ravishda o‘rgatishga katta e’tibor qaratilgan. Mavzular nazariy tushunchalar, qoidalar, namunaviy misollar va mustahkamlovchi mashqlar asosida tashkil etilgan.Eski darslikning muhim jihatlaridan biri — matematik qoidalarni aniq bayon qilish va ularni ko‘plab mashqlar orqali mustahkamlashga yo‘naltirilganidir. Unda o‘quvchilarning hisoblash malakalarini rivojlantirish, matematik amallarni to‘g‘ri bajarish, formulalardan foydalanish va masalalarni yechish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor berilgan.Darslikda natural sonlar, sonlarning bo‘linishi, oddiy va o‘nli kasrlar, nisbat va proporsiya, foizlar, algebraik ifodalar, tenglamalar, geometrik tushunchalar hamda boshqa matematik yo‘nalishlarga oid materiallar o‘rin olgan. Mavzularning berilishida oldingi bilimlarga tayanish va yangi bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi.2024-yilda nashr etilgan “AHA! Matematika” darsligi esa zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan. Unda matematik tushunchalarni o‘quvchiga faqat tayyor qoida sifatida taqdim etish emas, balki kuzatish, muhokama qilish, rasm va chizmalar orqali tushunish, mustaqil xulosa chiqarish hamda amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirishga katta e’tibor berilgan.

Yangi darslikning muhim xususiyatlaridan biri — “moddiy–rasmli–timsolli” yondashuvga asoslanganidir. Bunda o‘quvchi dastlab real predmetlar yoki hayotiy vaziyatlar orqali tushunchani anglaydi, keyin uni rasm va chizmalar yordamida tasavvur qiladi, so‘ngra matematik belgi, ifoda va formulalar orqali umumlashtiradi.

Masalan, algebraik ifodalarni o‘rganishda noma’lum sonni dastlab pechenye, olma, ruchka yoki boshqa predmetlar miqdori bilan bog‘lash, keyin uni harf bilan ifodalash va oxirida algebraik ifoda shaklida yozish usuli qo‘llanadi. Bu yondashuv o‘quvchining mavzuni faqat yodlab emas, balki mazmunan tushunishiga yordam beradi.Demak, eski darslikda matematik bilimlarni tizimli bayon qilish va mashqlar orqali mustahkamlash ustuvor bo‘lsa, yangi darslikda bilimlarni kashf etish, muhokama qilish, ko‘rgazmali tasvirlash va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Mavzular ketma-ketligi va o‘quv mazmunidagi farqlar. Ikki darslikni taqqoslashda eng muhim jihatlardan biri — mavzularning qanday tartibda joylashtirilgani va o‘quv materialining qanday mantiqiy ketma-ketlikda berilganidir.Eski darslikda mavzular an’anaviy o‘qitish tizimiga mos ravishda joylashtirilgan. O‘quvchi dastlab avvalgi sinflarda o‘rgangan bilimlarini takrorlaydi, keyin yangi mavzularni o‘zlashtiradi. Har bir mavzudan so‘ng unga tegishli mashqlar, misollar va masalalar beriladi. Bunday tartib o‘quvchiga mavzuni izchil o‘rganish va ko‘p marta takrorlash imkonini beradi.Yangi darslikda ham mavzular mantiqiy ketma-ketlik asosida tashkil etilgan, biroq ayrim mavzularni o‘rganish jarayoni yanada faol va amaliy shaklda berilgan. Masalan, birinchi qismda algebra, oddiy kasrlar, nisbatlar, foizlar, geometrik shakllardagi burchaklar, doira va aylana kabi bo‘limlar mavjud. Ikkinchi qismda esa tezlik, hajm, doiraviy diagrammalar, fazoviy jismlar va ularning yoyilmalari kabi mavzular o‘rin olgan.Bu jihatdan yangi darslikda matematikaning

World Bulletin of Social Sciences (WBSS)
Available Online at: https://www.scholarexpress.net
Vol. 64, November 2026
ISSN: 2749-361X

turli yo‘nalishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish, o‘quvchining kundalik hayotda uchraydigan miqdorlar va geometrik shakllar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor kuchaygan.Mavzularning joylashuvi va mazmunini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikki darslikda ham matematik bilimlar izchilligi saqlangan. Biroq yangi darslikda mavzularni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash, ularni turli ko‘rinishlarda tasvirlash va o‘quvchini faol fikrlashga jalb qilish imkoniyatlari ko‘proq namoyon bo‘ladi.Shu bilan birga, yangi darslikdagi mavzular ketma-ketligi o‘qituvchidan darsni puxta rejalashtirishni talab qiladi. Chunki ayrim topshiriqlarni bajarishda o‘quvchi nafaqat matematik hisoblashni, balki matnni tushunish, jadval yoki rasmni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishni ham bilishi kerak.

Ko‘rgazmalilik va zamonaviy ta’lim texnologiyalarida foydalanish. Matematik tushunchalarni o‘quvchilarga tushuntirishda ko‘rgazmali vositalar muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, 6-sinf o‘quvchilari uchun rasm, chizma, jadval, geometrik shakl va real predmetlardan foydalanish mavzuni osonroq tushunishga yordam beradi.

Eski darslikda ham ko‘rgazmali materiallar mavjud. Masalan, geometrik shakllar, chizmalar, rasmlar va ayrim hayotiy vaziyatlar orqali matematik tushunchalar izohlanadi. Darslikda mavzularni ajratib ko‘rsatish uchun turli shartli belgilar ham qo‘llangan. Ular qoidalar, sinf mashqlari, rivojlantiruvchi mashqlar, takrorlash va uy vazifalarini farqlashga yordam beradi.Yangi darslikda ko‘rgazmalilik yanada tizimli ravishda tashkil etilgan. Rangli rasmlar, sxemalar, chizma-modellar va turli ruknlar yordamida o‘quvchining diqqatini mavzuga jalb qilish ko‘zda tutilgan.Bundan tashqari, yangi darslikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ham mavjud. Masalan, fazoviy jismlar va ularning yoyilmalarini o‘rganishda videolavhalardan foydalanish, ayrim topshiriqlarni maxsus raqamli vositalar orqali bajarish nazarda tutiladi.Bunday imkoniyatlar o‘quvchilarning matematik tasavvurini kengaytiradi. Ayniqsa, geometriya mavzularida tekislikdagi tasvir bilan fazoviy jism o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashda ko‘rgazmali va raqamli vositalar samarali hisoblanadi.Shuni ham ta’kidlash kerakki, ko‘rgazmalilikning ko‘pligi har doim ham yuqori natijani anglatmaydi. Agar o‘qituvchi rasm yoki chizmadan qanday foydalanishni tushuntirmasa, o‘quvchi asosiy matematik mazmunni anglamasdan faqat tasvirga e’tibor qaratishi mumkin.Shu sababli ko‘rgazmali materiallar matematik qoida, hisoblash va mustaqil mashqlar bilan birgalikda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Eski va yangi darsliklarning afzalliklari va kamchiliklari. Darsliklarni qiyosiy tahlil qilishda ularning faqat ijobiy jihatlarini ko‘rsatish yetarli emas. Har bir darslikning ta’lim jarayonidagi imkoniyatlari bilan birga, foydalanish davomida e’tibor talab qiladigan tomonlarini ham aniqlash lozim.

Eski darslikning afzalliklari. Birinchidan, eski darslikda nazariy bilimlar izchil va tartibli bayon qilingan. Mavzularning berilishida matematik tushunchalarning ketma-ketligi saqlangan.Ikkinchidan, qoidalar va namunaviy yechimlar o‘quvchiga yangi mavzuni tushunishda tayanch bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchi misolning qanday yechilishini ko‘rib, shu tartib asosida boshqa mashqlarni bajarishi mumkin.Uchinchidan, mashq va misollar orqali hisoblash malakasini mustahkamlashga katta e’tibor qaratilgan. Bu esa matematik amallarni tez va aniq bajarish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi.To‘rtinchidan, uy vazifalari va takrorlash mashqlari orqali o‘quvchining mustaqil ishlash imkoniyati mavjud.Beshinchidan, darslikdagi ayrim masalalar kundalik hayot, tabiat, iqtisodiy vaziyatlar va atrof-muhit bilan bog‘langan. Demak, eski darslikni faqat nazariy bilim beruvchi manba sifatida baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Yangi darslikning afzalliklari. Yangi darslikning asosiy afzalligi — o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishga intilishidir.Birinchidan, mavzular ko‘pincha hayotiy vaziyatlar bilan bog‘langan. Bu o‘quvchiga matematik bilimlarning kundalik hayotdagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi.Ikkinchidan, rasm, chizma va modellar orqali murakkab tushunchalarni sodda shaklda tushuntirish imkoniyati mavjud.Uchinchidan, juftlikda va guruhda ishlashga mo‘ljallangan topshiriqlar o‘quvchilarning muloqot qilish, hamkorlikda fikrlash va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.To‘rtinchidan, muammoli topshiriqlar o‘quvchini mustaqil izlanishga undaydi. Bunda o‘quvchi tayyor qoidani qo‘llash bilan cheklanmay, yechimga olib boradigan yo‘lni ham izlaydi.Beshinchidan, o‘z-o‘zini tekshirish va baholashga mo‘ljallangan ruknlar o‘quvchining o‘z bilimiga tanqidiy yondashishiga yordam beradi.Oltinchidan, axborot texnologiyalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan mashqlar zamonaviy ta’lim muhiti bilan bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Yangi darslikning kamchiliklari va e’tibor talab qiladigan jihatlari. Yangi darslikning imkoniyatlari keng bo‘lishiga qaramay, undan samarali foydalanish ayrim shartlarga bog‘liq.Birinchidan, ayrim topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchidan mustaqil fikrlash, matnni tahlil qilish va ma’lumotlarni izohlash talab qilinadi. Matematik tayyorgarligi sust o‘quvchilar bunday topshiriqlarda qiynalishi mumkin.Ikkinchidan, guruhli va juftlikdagi topshiriqlarni samarali tashkil etish uchun

World Bulletin of Social Sciences (WBSS)
Available Online at: https://www.scholarexpress.net
Vol. 64, November 2026
ISSN: 2749-361X

o‘qituvchidan qo‘shimcha vaqt va puxta rejalashtirish talab etiladi.Uchinchidan, raqamli vositalar bilan bog‘liq mashqlarni bajarish uchun maktabda texnik imkoniyatlar va internet aloqasi yetarli bo‘lishi kerak. Barcha ta’lim muassasalarida bunday sharoit bir xil emas.To‘rtinchidan, ko‘rgazmali materiallar va hayotiy vaziyatlar bilan ishlash jarayonida matematik hisoblash ko‘nikmalariga yetarli vaqt ajratilmasa, ayrim o‘quvchilarning amaliy hisoblash malakasi kutilgan darajada rivojlanmasligi mumkin.Beshinchidan, yangi darslikdagi topshiriqlarni o‘quvchilarning bilim darajasiga qarab tabaqalashtirish zarur. Aks holda, ayrim o‘quvchilar topshiriqni mustaqil bajarishda qiynalishi, boshqalari esa vazifani juda oson deb hisoblashi mumkin.

ularni zamonaviy ta’lim yondashuvlari, ko‘rgazmali vositalar va amaliy topshiriqlar bilan boyitishga intiladi.

Darsliklardan foydalanishda o‘qituvchining roli va samarali metodik yondashuvlar. Har qanday darslikning ta’limiy samaradorligi undan qanday foydalanilishiga ham bog‘liq. Hatto mazmunan mukammal darslik ham o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tashkil etilmagan darsda kutilgan natijani bermasligi mumkin.Shuning uchun matematika o‘qituvchisi eski va yangi darsliklarning imkoniyatlarini tahlil qilib, ularni o‘quvchilarning bilim darajasi va mavzuning xususiyatiga qarab uyg‘unlashtirishi maqsadga muvofiq.Masalan, yangi mavzuni tushuntirishda yangi darslikdagi rasm, muammoli savol va hayotiy vaziyatlardan foydalanish mumkin. Mavzuning asosiy qoidasi tushuntirilgandan so‘ng esa eski darslikdagi kabi bosqichma-bosqich mashqlar bajarish orqali bilimni mustahkamlash mumkin.Quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. Muammoli vaziyat yaratish metodi. Dars boshida o‘quvchilarga kundalik hayotdan olingan savol yoki vaziyat taqdim etiladi. O‘quvchilar muammoni tahlil qilib, matematik yechimni izlaydilar. Bu usul yangi mavzuga qiziqishni oshiradi.

2. Ko‘rgazmali tushuntirish metodi. Geometrik shakllar, jadvallar, sonlar o‘qi, chizmalar va real predmetlar yordamida mavzu tushuntiriladi. Bu usul ayniqsa abstrakt tushunchalarni o‘zlashtirishda foydalidir.

*3. Differensial yondashuv.*O‘quvchilarga bilim darajasiga mos topshiriqlar beriladi. Masalan, birinchi guruh sodda misollar, ikkinchi guruh o‘rtacha murakkablikdagi masalalar, uchinchi guruh esa mantiqiy va murakkab topshiriqlarni bajaradi.

4. Juftlikda ishlash metodi. O‘quvchilar ikki kishilik guruhlarda misol va masalalarni yechadilar, yechimlarini taqqoslaydilar va bir-birlariga tushuntiradilar. Bu usul bilimlarni mustahkamlash bilan birga, muloqot ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

5. Matematik o‘yinlar. “Kim tez topadi?”, “Xatoni aniqlang”, “To‘g‘ri yechimni tanlang”, “Matematik domino” kabi o‘yinlardan foydalanish darsni qiziqarli tashkil etishga yordam beradi.

6. Raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish. Mavzuga mos ravishda GeoGebra, interaktiv taqdimotlar, elektron testlar va boshqa ta’limiy vositalardan foydalanish mumkin. Bunda texnologiya darsning maqsadiga xizmat qilishi, matematik mazmunning o‘rnini egallamasligi kerak.

Eski va yangi darsliklar tajribasini uyg‘unlashtirish zarurati. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, eski va yangi darsliklarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish to‘g‘ri emas. Chunki ularning har biri o‘z davri ta’lim talablari va metodik yondashuvlariga muvofiq ishlab chiqilgan.Eski darslikning kuchli tomoni — matematik bilimlarni izchil o‘rgatish, qoidalarni mustahkamlash va hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratilganidir. Yangi darslikning kuchli tomoni esa o‘quvchini faol fikrlashga jalb qilish, mavzularni hayot bilan bog‘lash, ko‘rgazmali vositalar va hamkorlikdagi faoliyatdan foydalanish imkoniyatlarining kengligidir.Shu nuqtayi nazardan, matematika ta’limida har ikki darslikning ijobiy jihatlaridan foydalanish samarali natija berishi mumkin.Masalan, o‘quvchilarga yangi tushuncha avval hayotiy misol yoki ko‘rgazmali vosita yordamida tushuntiriladi. Keyin matematik qoida umumlashtiriladi. Shundan so‘ng sodda misollardan murakkab misollarga o‘tish orqali bilim mustahkamlanadi. Dars yakunida esa muammoli yoki amaliy topshiriq berilib, o‘quvchining mavzuni hayotiy vaziyatda qo‘llay olish darajasi aniqlanadi.Bunday yondashuv o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimini, balki amaliy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

XULOSA

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, 2017-yilgi “Matematika 6” darsligi va 2024-yilgi “AHA! Matematika” darsligi o‘zining mazmuni, tuzilishi va metodik yondashuvlari bilan bir-biridan farq qiladi. Biroq har ikkala darslikning asosiy maqsadi o‘quvchilarda matematik bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Eski darslikda nazariy bilimlarni tizimli bayon qilish, qoidalarni mustahkamlash va ko‘p mashq bajarish imkoniyatlari muhim o‘rin tutadi. Bu esa o‘quvchilarning hisoblash malakasini rivojlantirish va matematik amallarni puxta o‘zlashtirishida muhim ahamiyatga ega. Yangi darslikda esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi, guruhda ishlashi, matematik bilimlarni kundalik hayotda qo‘llashi va o‘z bilimini baholashi uchun kengroq imkoniyatlar yaratilgan.

World Bulletin of Social Sciences (WBSS)
Available Online at: https://www.scholarexpress.net
Vol. 64, November 2026
ISSN: 2749-361X

Shu bilan birga, yangi darslikdan samarali foydalanish uchun o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, darsni to‘g‘ri rejalashtirishi, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olishi va zarur texnik vositalardan oqilona foydalanishi muhimdir.

Maqola doirasidagi tahlil asosida quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Matematika darslarida nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirish lozim.
2. Har bir yangi mavzuni o‘quvchilarga tanish bo‘lgan hayotiy vaziyatlar orqali tushuntirish maqsadga muvofiq.
3. Hisoblash malakasini rivojlantirish uchun muntazam va bosqichma-bosqich mashqlar bajarilishi zarur.
4. O‘quvchilarning bilim darajasini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanish kerak.
5. Geometrik va abstrakt tushunchalarni tushuntirishda ko‘rgazmali vositalar, chizmalar va modellarni qo‘llash lozim.
6. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muammoli savollar, juftlik va guruhli topshiriqlarga e’tibor qaratish zarur.
7. Raqamli texnologiyalardan dars maqsadiga muvofiq va me’yorida foydalanish kerak.

Umuman olganda, zamonaviy matematika ta’limining samaradorligi faqat yangi darslikdan foydalanish bilan emas, balki darslik mazmunini to‘g‘ri metodik yondashuv asosida tashkil etish bilan belgilanadi. Eski darslikdagi tizimlilik, aniqlik va muntazam mashq bajarish tamoyillarini yangi darslikdagi ko‘rgazmalilik, amaliy yo‘naltirilganlik va mustaqil fikrlashga undovchi topshiriqlar bilan birlashtirish o‘quvchilarning matematik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, 6-sinf matematika darsliklarini takomillashtirishda asosiy e’tibor o‘quvchining nafaqat matematik qoidalarni bilishi, balki ularni tushunishi, tahlil qilishi va real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishiga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzaahmedov M.A., Rahimqoriyev A.A., Ismailov Sh.N., 2.To‘xtaxodjayeva M.A. Matematika 6. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 2017.
2. **6-sinf matematika 1-qism 2024-N - Zokirjon.com**
3. **6 Sinf Matematika Mashq Daftari 1 Qism @elekton Darslikbot - Scribd**
4. **6-Sinf Matematika Mashq Daftari 2-Qism @E - Baza - Ishreja - Scribd**
5. Umumiy Orta Talimning Matematika Fani | PDF - Scribd
6. MATEMATIKA 0'QITISH METODIKASI - Yangi Asr Universiteti